

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE CONCEPT OF EMPHATIC DEVICES AND THEIR CLASSIFICATION****Abdulaziz E. Rustamov***PhD in Philology, Senior Lecturer**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*abdulazizrustamov161@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***Sirojiddin S. Narzullaev***1st-year Master's student**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*sirojiddinnarzullaev344@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: emphasis, emphatic devices, Arabic language, particle, grammatical device, semantics, pragmatics, emphasis particles, oath, repetition.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article examines the concept of emphasis markers, their place in linguistics, and their functional characteristics on the example of the Arabic language. Emphasis is considered a linguistic phenomenon that serves to strengthen the importance of an uttered idea, place special focus on certain information, and ensure the clarity and certainty of the proposition expressed in speech. The study classifies the main emphatic devices in Arabic, including *inna* (إِنَّ), *lām al-tawkīd* (لام التوكيد), *nūn al-tawkīd* (نون التوكيد), *qad* (قد), *sa-* (سـ), *sawfa* (سوف), *innamā* (إنما), oath expressions, and repetition, from grammatical and semantic perspectives. Their syntactic functions, role in strengthening meaning, and communicative-pragmatic significance are also analyzed. The findings show that emphatic devices in Arabic play an important role in determining precision, expressiveness, and semantic focus in speech.

TA'KID VOSITALARI TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI**Abdulaziz E. Rustamov***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi*

Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
abdulazizrustamov161@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

Sirojiddin S. Narzullayev
1-kurs magistranti
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
sirojiddinnarzullaev344@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: taʼkid, taʼkid vositalari, arab tili, yuklama, grammatik vosita, semantika, pragmatika, taʼkid yuklamalari, qasam, takror.

Annotatsiya: Mazkur maqolada taʼkid vositalari tushunchasi, ularning tilshunoslikdagi oʻrni va funksional xususiyatlari arab tili misolida tahlil qilinadi. Taʼkid nutqda ifodalanayotgan fikrning muhimligini kuchaytirish, maʼlum bir axborotga alohida urgʻu berish hamda hukmning aniqligi va ishonchliligini taʼminlashga xizmat qiluvchi til hodisasi sifatida yoritiladi. Tadqiqotda arab tilidagi asosiy taʼkid vositalari, jumladan *إِنَّ, لَام التوكيد*, *نُون التوكيد*, *قَدْ, سِد, سَوْف, إِنَّمَا*, qasam va takror kabi birliklar grammatik-semantik jihatdan tasniflanadi. Shuningdek, ularning gap tarkibidagi vazifasi, maʼno kuchaytirishdagi roli va kommunikativ-pragmatik ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari arab tilida taʼkid vositalari nutqning aniqligi, taʼsirchanligi va maʼno urgʻusini belgilashda muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi.

ПОНЯТИЕ СРЕДСТВ УСИЛЕНИЯ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Абдулазиз Э. Рустамов
Доктор философии по филологическим наукам (PhD), старший преподаватель
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
abdulazizrustamov161@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

Сирожиддин С. Нарзуллаев
Магистрант 1 курса
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан
sirojiddinnarzullaev344@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: усиление, средства усиления, арабский язык, частица, грамматическое средство, семантика, прагматика, усилительные частицы, клятва, повтор.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие средств усиления, их место в языкознании и функциональные особенности на материале арабского языка. Усиление трактуется как языковое явление, служащее для повышения значимости выражаемой мысли, акцентирования определённой информации, а также обеспечения точности и достоверности высказывания. В исследовании классифицируются основные средства усиления в арабском языке, в частности, *إنَّ*, *لام التوكيد*, *نون التوكيد*, *قد*, *سوف*, *إنما*, клятва и повтор, с грамматической и семантической точек зрения. Также раскрываются их функции в структуре предложения, роль в усилении значения и коммуникативно-прагматическая значимость. Результаты исследования показывают, что средства усиления в арабском языке играют важную роль в обеспечении точности, выразительности и смыслового акцента речи.

Kirish. Tilshunoslikda ta'kid nutqda ifodalanayotgan fikrning muhimligini kuchaytirish, ma'lum bir axborotga alohida urg'u berish hamda xabar mazmunining aniqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Ta'kid yordamida gapda ifodalanayotgan hukm mustahkamlanadi va tinglovchining e'tibori aynan muhim bo'lgan ma'lumotga qaratiladi. Shu sababli ta'kid tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi.

Turli tillarda ta'kid turli vositalar orqali ifodalanadi. Ayrim hollarda u grammatik shakllar yoki maxsus yuklamalar orqali ifodalansa, boshqa hollarda intonatsiya, so'z tartibi yoki stilistik usullar orqali yuzaga chiqadi. Shuning uchun ta'kid hodisasi tilshunoslikda grammatik, semantik va pragmatik jihatdan o'rganiladigan ko'p qirrali til hodisasi sifatida qaraladi.

Ta'kid vositalari nutqda fikrni aniqlashtirish, xabarni kuchaytirish hamda kommunikativ maqsadni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan u nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim vosita bo'lib, til birliklarining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Tilshunoslik tadqiqotlarida ta'kid hodisasi ko'pincha nutqning ekspressivligi va ma'no kuchaytirish vositalari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Arab tilida ta'kid turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Xususan, ayrim yuklamalar, grammatik shakllar va sintaktik konstruktsiyalar yordamida gap mazmuni kuchaytiriladi. Ta'kid yuklamalari gapdagi fikrni mustahkamlash, xabarni inkor yoki shubha ehtimolidan himoya qilish

hamda nutqning ishonchliligini oshirish vazifasini bajaradi (Al-Ghalayini, 2007, Vol. 3, p. 176). Shu sababli arab tilidagi ta'kid yuklamalari grammatik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Muxtor as-Sihah”ga ko‘ra, ta'kid til jihatidan tasdiqlash yoki biror fikrni mustahkamlash ma'nosini bildiradi. Masalan, “u biror narsani ta'kidladi” iborasi ma'noni kuchaytirish va mustahkamlashni anglatadi. Shuningdek, ayrim hollarda bu ma'no “tasdiqladi”, “yanada mustahkamladi” kabi iboralar orqali ham ifodalanadi (Al-Razi, 1989, p. 647).

Itilohiy jihatdan ta'kid — tinglovchining ongida ifodalanayotgan hukmni mustahkamlash va uni qat'iy tasdiqlashni bildiradi. Ta'kid yuklamalari ma'noga ega bo'lgan birliklar bo'lib, ular gap tarkibida qo'llangandagina o'z ma'nosini namoyon qiladi. Bu yuklamalarning ayrimlari so'z oxiriga ta'sir qilib, i'rob yoki grammatik shaklni o'zgartiradi. Boshqalari esa sintaktik ta'sir ko'rsatmasdan, faqat ma'no jihatdan ta'kidni ifodalaydi (Al-Razi, 1989, p. 647).

Arab tilida ta'kid yuklamalarining ko'pligi va ularning gap tarkibida turlicha funksiyalarni bajarishi ushbu birliklarni lingvistik jihatdan alohida o'rganishni talab etadi. Ta'kid yuklamalari yordamida gap mazmuni kuchaytiriladi, nutqning semantik aniqligi ta'minlanadi hamda kommunikativ maqsad yanada ravshan ifodalanadi. Tilshunoslarning fikricha, ushbu yuklamalarni to'g'ri tushunish gapning asl ma'nosini to'liq anglashga yordam beradi, chunki ta'kid vositalari nutqdagi ma'no urg'usini belgilaydi.

Ta'kid yuklamalari Qur'oni Karim matnlarida ham keng qo'llaniladi. Muqaddas matnda mazkur birliklar ma'lum semantik va uslubiy maqsadlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu sababli arab tilidagi ta'kid yuklamalarini o'rganish nafaqat grammatik jihatdan, balki diniy matnning mazmunini chuqurroq anglash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tafsiir, grammatika va tilshunoslikka oid ko'plab manbalarda ta'kid yuklamalarining qo'llanishi va ularning ma'no ifodalashdagi o'rni haqida turli izohlar berilgan.

Arab grammatikasi tarixida ta'kid vositalari masalasi ko'plab grammatiklar tomonidan o'rganilgan. Klassik nahv manbalarida ta'kid yuklamalarining grammatik vazifasi, gap tarkibidagi o'rni hamda ma'no kuchaytirishdagi roli haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Har bir grammatik maktab ushbu birliklarni o'zining nazariy qarashlari asosida talqin qilgan bo'lsa-da, ularning barchasi ta'kid vositalarining nutqdagi muhim funksiyasini e'tirof etgan.

Ushbu tadqiqotda arab tilida ta'kid vositalarining grammatik va semantik xususiyatlarini o'rganish maqsadida tavsifiy, tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ta'kid yuklamalari va ularning nutqdagi funksiyalari nazariy manbalar asosida tizimlashtirildi hamda ularning qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilindi.

Natijalar. Arab tilida ta'kidni ifodalovchi vositalarni bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

إن yuklamasi. Arab tilida ta'kidni ifodalovchi eng muhim yuklamalardan biri إن hisoblanadi. Ushbu yuklama odatda ismli gap boshida kelib, xabarni ta'kidlash va uning mazmunini kuchaytirish vazifasini bajaradi. إن yuklamasi gap tarkibida kelganda muhtadoni mansub holatga kiritadi va xabarni marfu' holda qoldiradi. Shu orqali gapda ifodalanayotgan fikrning ishonchliligi va qat'iyiligi kuchayadi. Arab grammatiklarining fikricha, إن yuklamasi nutqda shubha yoki inkor ehtimoli mavjud bo'lgan holatlarda xabarni mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Masalan, quyidagi oyatda إِنَّ yuklamasi xabarni ta'kidlash vazifasini bajaradi:

إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَحِيمٌ

Mazkur misolda إن yuklamasi Allohning mag'firatli va rahimli ekanini alohida ta'kidlab, xabar mazmunining kuchaytirilishini ta'minlaydi.

لام التوكيد. Arab tilida ta'kidni ifodalovchi yana bir muhim vosita لام التوكيد hisoblanadi. Ushbu yuklama odatda fe'l yoki xabar tarkibiga qo'shilib, gap mazmunini yanada kuchaytiradi. Lam at-ta'kid nutqda fikrning qat'iyiligini va uning amalga oshishiga bo'lgan ishonchni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yuklama ko'pincha إِنَّ bilan birgalikda ham kelishi mumkin va bu holatda ta'kid darajasi yanada ortadi.

Masalan, mana bu misolda lam at-ta'kid qo'llangan:

وَإِنَّ رَبَّكَ لَذُو فَضْلٍ عَلَى النَّاسِ

Ushbu gapda lam yuklamasi xabarni kuchaytirib, insonlarga bo'lgan fazl va marhamatni ta'kidlaydi.

Lam al-ibtido ikki asosiy vazifani bajaradi (Bakhit, 2022, p. 3622). Birinchidan, u tasdiq gapining mazmunini kuchaytiradi. Shu sababli u lam at-ta'kid deb ham ataladi. Bu lam odatda gapdagi xabarga kirib kelib, mazmunni yanada mustahkamlaydi. Bunga Qur'oni karimdagi quyidagi oyat misol bo'la oladi:

رَبِّ إِنَّكَ لَسَمِيعُ الدُّعَاءِ

Ya'ni: "Albatta, Parvardigorim duoni eshituvchidir". Bu lam ba'zan lam al-muzahliqa deb ham ataladi.

Ikkinchidan, u fe'lning zamon ma'nosiga ta'sir qiladi. Ya'ni undan keyin kelgan muzori' fe'l oldin hozirgi va kelasi zamoni bildirishi mumkin bo'lsa, bu lam bilan kelganda uning ma'nosi hozirgi zamonga ko'proq xos bo'lib qoladi.

نون التوكيد. Arab tilida fe'l orqali ifodalangan harakatni kuchaytirish uchun نون التوكيد ishlatiladi. Bu yuklama fe'lga qo'shilib, harakatning qat'iyiligi yoki muqarrarligini bildiradi. Nūn at-ta'kid ikki turga bo'linadi: nun at-ta'kid as-saqila (og'ir nun) va nun at-ta'kid al-xafifa (yengil

nun). Ushbu shakllar fe'lga qo'shilib, harakatning albatta amalga oshishini yoki qat'iyligini ifodalaydi.

Ta'kid nuni ikki turga bo'linadi: yengil ta'kid nuni va og'ir ta'kid nuni. Yengil ta'kid nuni sukun bilan tugaydigan nun bo'lib, u fe'lga qo'shilganda sukun asosida quriladi. Og'ir ta'kid nuni esa tashdidli nun bo'lib, fatha asosida quriladi va undan oldingi harf ham ochiq tovush bilan keladi (Abbas, n.d., Vol. 4, p. 161).

لَنْسَفَعًا بِالنَّاصِيَةِ

Mazkur misolda fe'lga qo'shilgan nun harakatning qat'iy amalga oshishini ta'kidlab turibdi.

قد yuklamasi. Arab tilida ta'kidni ifodalovchi yana bir muhim yuklama قد hisoblanadi. Ushbu yuklama fe'l bilan birga kelib, uning ma'nosini kuchaytirish yoki harakatning amalga oshganligini ta'kidlash vazifasini bajaradi. Agar قد o'tgan zamon fe'li bilan ishlatilsa, u harakatning sodir bo'lganini bildiradi. Hozirgi zamon fe'li bilan kelganda esa ehtimollik yoki ta'kid ma'nosini ifodalashi mumkin.

Masalan, ushbu misolda قد yuklamasi ishlatilgan:

قَدْ أَقْلَحَ الْمُؤْمِنُونَ

Bunda قد yuklamasi najotni ta'kidlab, gap mazmunining kuchaytirilishini ta'minlaydi.

سـ (sin) yuklamasi. Arab tilida سـ yuklamasi fe'l oldiga qo'shilib, kelasi zamoni bildiradi. Ushbu yuklama kelajakda sodir bo'ladigan harakatni yaqin kelajakda amalga oshishini ifodalash uchun ishlatiladi. Ba'zi holatlarda u harakatning sodir bo'lishi aniq ekanini bildirganligi sababli ta'kid ma'nosini ham kuchaytiradi. Shu bois ayrim lingvistik tadqiqotlarda سـ yuklamasi ham ta'kid vositalari qatorida ko'rib chiqiladi.

سَيَهْدِيهِمْ وَيُصَلِّحُ بِأَلْهَمِ

Mazkur misolda سـ yuklamasi kelajakda sodir bo'ladigan harakatni bildirib, ushbu harakatning amalga oshishiga ishonchni ifodalaydi.

سوف yuklamasi. Arab tilida kelasi zamoni ifodalovchi yana bir yuklama سوف hisoblanadi. Ushbu yuklama fe'l oldidan kelib, harakatning kelajakda sodir bo'lishini bildiradi. Grammatik jihatdan سوف ham kelasi zamon ma'nosini ifodalasa-da, ko'pincha harakatning keyinroq sodir bo'lishini yoki uning muqarrarligini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Shu sababli ayrim tadqiqotlarda سوف yuklamasi ham nutqdagi ta'kid vositalaridan biri sifatida talqin qilinadi.

“Sawfa” yuklamasi gap boshida keladigan lam al-ibtido bilan birga qo'llanishi mumkin (Abbas, n.d., Vol. 4, p. 161). Bu holatda kelasi zamoni bildiruvchi fe'l yanada kuchliroq ta'kid ma'nosini oladi. Bunga quyidagi misol bo'la oladi:

وَأَسْوَفَ يُعْطِيكَ رَبُّكَ فَتَرْضَى

Bunda kelasi zamon ma'nosi lam al-ibtido va sawfa yuklamalari orqali kuchaytirilgan bo'lib, kelajakda ne'mat berishini ta'kidlab bayon qiladi. Bu yerda سوف yuklamasi harakatning kelajakda amalga oshishini bildirib, xabar mazmunini yanada kuchaytiradi.

Klassik nahvda س va سوف odatda "harf istiqbol" (kelasi zamon yuklamalari) hisoblanadi. Lekin semantik jihatdan harakatning muqarrarligini bildirgani uchun ba'zi tadqiqotlarda ularni ta'kidga yaqin vosita sifatida ham tahlil qilishadi.

إنما yuklamasi. Arab tilida ta'kidni ifodalovchi vositalardan yana biri إنما hisoblanadi. Ushbu yuklama gapda ma'lum bir hukmni chegaralash va aynan shu fikrni ta'kidlash vazifasini bajaradi. إنما odatda qasr (cheklash) ma'nosini bildiradi, ya'ni gapda ifodalanayotgan hukm faqat ma'lum bir subyekt yoki holatga tegishli ekanini ko'rsatadi. Shu sababli u ta'kid va ma'no aniqligini kuchaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Masalan, ushbu misolda إنما ishlatilgan:

إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ إِخْوَةٌ

Mazkur misolda إنما yuklamasi mo'minlarning o'zaro birodar ekanini ta'kidlab, hukmni aniq chegaralab beradi.

Qasam (القسم). Arab tilida ta'kidni ifodalashning yana bir muhim usullaridan biri qasam hisoblanadi. Qasam yordamida gap mazmuni kuchaytiriladi va xabar mazmunining qat'iyliги ifodalanadi. Arab tilida qasam ko'pincha ب، ت، و، kabi harflar orqali ifodalanadi. Bu vositalar orqali aytilayotgan fikrning haqiqatligi va muhimligi ta'kidlanadi.

Masalan, Qur'oni karimda quyidagi oyatda qasam qo'llangan: وَالْعَصْرِ

Bu oyatda vaqt bilan qasam ichish orqali keyingi hukmning muhimligi va haqiqatligi ta'kidlanadi.

Takror (التكرار). Arab tilida ta'kidni ifodalovchi usullardan yana biri takror hisoblanadi. Takror nutqda ma'lum bir so'z yoki iboraning qayta-qayta qo'llanishi orqali fikrni kuchaytirish va unga alohida urg'u berish vazifasini bajaradi. Ushbu usul nutqning ta'sirchanligini oshirib, aytilayotgan fikrning muhimligini ko'rsatadi.

Masalan, quyidagi misolda takror usuli qo'llangan:

فَبِأَيِّ آلَاءِ رَبِّكُمَا تُكَذِّبَانِ

Mazkur misol bir necha bor takrorlanib, inson va jinlarga ne'matlarni eslatish hamda ularning muhimligini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

Nahv ilmida ta'kid ikki asosiy turga bo'linadi: ma'noviy ta'kid (التوكيد المعنوي) va lafziy ta'kid (التوكيد اللفظي) (Khalid, 2018, p. 535). Ushbu ikki tur gap tarkibida turlicha grammatik vazifani bajaradi hamda morfologik va sintaktik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ma'noviy ta'kid gapdagi ma'noni kuchaytirish uchun maxsus so'zlar yordamida ifodalanadi. Bu turdagi ta'kid odatda ta'kidlanayotgan so'zdan keyin kelib, unga mos keluvchi olmosh bilan birikadi. Nahv adabiyotlarida ma'noviy ta'kid quyidagi so'zlar yordamida

orqali gap mazmuni kuchaytiriladi, fikrning ishonchliligi oshiriladi hamda kommunikativ maqsad yanada aniq ifodalanadi.

Tadqiqot natijasida ta'kid vositalarining turli grammatik shakllarda namoyon bo'lishi va ularning nutqda turlicha funksiyalarni bajarishi aniqlandi. Xususan, ta'kid yuklamalari xabar mazmunini mustahkamlashga xizmat qilsa, ma'naviy va lafziy ta'kid turlari esa fikrni aniqlashtirish va unga urg'u berishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ta'kid hodisasi nafaqat grammatik, balki semantik va uslubiy jihatdan ham ahamiyatga ega bo'lib, u nutqning ekspressivligini oshiruvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois arab tilidagi ta'kid vositalarini o'rganish til tizimini chuqurroq anglash hamda lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abbas, H. (1974). *The sufficient grammar. An-Nahw al-Wafi.* – Cairo: Dar al-Ma'arif. – Vol. 4. – 803 p. (in Arabic)
2. Al-Ghalayini, M. M. (2007). *The collector of Arabic lessons. Jami' ad-Durus al-Arabiya.* – Cairo: Dar al-Ghad al-Jadid. – Vol. 3. – 325 p. (in Arabic)
3. Al-Razi, M. A. (1989). *The choice of health (Dictionary). Mukhtar al-Sihah.* – Lebanon: Maktabat Lubnan. – 658 p. (in Arabic)
4. Bakhit, H. M. M. (2022). *Emphatic particles in the Arabic language: A grammatical semantic study in the Holy Quran.* – *International Journal of Health Sciences.* – Vol. 6 (S1). – pp. 3622-3635. (in English) DOI: <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS1.5523>
5. Begmatova B.M., Mutalova G.S., Kasimova S.S. (2023). *The direct object and its use in Arabic language // Boletín De Literatura Oral -The Literary Journal, Vol. 10 No. 1.* – Pp. 3601-3609. (in English)
6. Khalid, A. A. (2018). *Applied grammar. An-Nahw at-Tatbiqi.* – Cairo: Dar al-Lu'lu'a. – 599 p. (in Arabic)
7. Rustamov A.E. (2017). *The Meaning of Particles (al-huruf-nasib) in Expressing Modality in the Arabic Literary Language. Znacheniyе chastits (al-khuruf-nasiba) v vyrazhenii modal'nosti v arabskom literaturnom yazyke // "Current Problems of Arabic Philology and Methods of Teaching the Arabic Language". V International Scientific and Practical Conference, November 10-11, 2017. – Grozny (Chechen Republic).– Pp. 337-342 (in Russian)*
8. Rustamov A.E. (2025). *Features of conditional constructions in the Arabic language. Arab tilida shartni ifodalovchi konstruktsiyalar xususiyatlari // Oriental Journal of Philology, Vol 05, Issue 03.* – Pp. 561-567. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-64> (in Uzbek)

9. Rustamov, A. (2020). Syntactic properties of conditional prepositions (hurufu-sh-shart). Shart yuklamalari (hurufu-sh-shart)ning sintaktik xususiyatlari. Eastern torch, 1(1), 108-116. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/13273> (in Uzbek)

10. Rustamov, A.E. (2022). The characteristics of the interaction between the conditional verb and the response verb in the conditional compound sentence in Arabic. Arab tilida shart ergash gapli qo'shma gapda shart fe'li va javob fe'lining o'zaro bog'lanish xususiyatlari // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Volume 2, Issue 13. – Pp. 35-42. (ISSN: 2181-2888) (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7416928>) (in Uzbek)

11. Sibawayh, A. U. (1988). The Book (A. S. Harun, Ed.). Al-Kitab. – Cairo: Maktabat al-Khanji. – Vol. 3. – 662 p. (in Arabic)